



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI


2023- YIL YANVAR-MART OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-mart oylarida)

2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3840,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 51,2 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 6,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

mln. so'm

Yanvar-mart

FHI,% da



2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1968,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 51,2 % ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-mart


48,7 %

2023- yil
yanvar-mart

51,2 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,3 % ni (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 5,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,9 % (3,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,4 % (20,4 %) va quyi texnologiyalisi – 70,4 % (70,9 %) ni tashkil etdi.


■ 2022- yil ■ 2023- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 3,3 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 7,3 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 38,0 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 146,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,4 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,9 % (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 29,3 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *




* Yanvar-mart oylari yirik korxonalar bo‘yicha


Aroq




Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar



Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar



Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2023- yilning yanvar-mart oylar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 0,7 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 61,7 % ga kamaygan), 0,06 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (261,5 % oshgan) hamda 3,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (37,9 % ga kamayib) ishlab chiqarilib, past o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	5200	1905	-3295
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	210,6	406,0	195,4
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	4,4	4,3	-0,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	18,6	10,8	-7,8
Paxta tolasi, ming t.	8,3	9,4	1,1


Yanvar-mart oylari yirik korxonalar bo'yicha

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 27,8 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'paydi, fizik hajm indeksi esa, 3,1 martaga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 6,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,0 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 144,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,8 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 559,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 56,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 110,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 96,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 38,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 666,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 92,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 %, fizik hajm indeksi 76,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 69,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 92,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 11,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 205,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 88,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 65,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 182,6 % ni tashkil etgan .

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 106,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 24,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1834,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 47,8 %) ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,0 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5000,4	5033,8	33,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	47,1	39,7	-7,4

yanvar-mart oylari yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %) ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	16,7	19,1	2,4
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	1,7	5,7	4,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 3,7 martaba oshgan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 43,4 % ga ko'payishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 745,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 124,4 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 19,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-mart

69,3%

2023- yil
yanvar-mart

70,9%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-mart

30,7%

2023- yil
yanvar-mart




29,1%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,9 % (2022- yil yanvar-mart oylarida 71,1 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 21,3 % , Guliston shahri 20,7 % , Yangiyer shahri 13,0 % hamda Boyovut tumani 12,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (124,4 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahri (350,7 %), Boyovut tumani (179,2 %), Guliston tumani (162,8 %) hamda Oqoltin tumanida (151,1 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 21,3 %, shuningdek, Guliston shahri 20,7 % ni, Yangiyer shahri 13,0 % ni, Boyovut tumani 12,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to'g'ri kelib, 26,4 %, shuningdek, Sirdaryo tumani 22,4 % ni, Boyovut tumani 21,4 % ni, Xovos tumani 10,9 % ni tashkil etdi.

363,6 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-mart

706,3 mlrd. so'm


2022- yil yanvar-mart

216,4 mlrd. so'm

2023- yil yanvar-mart




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 20,8 % ni, shuningdek, Guliston shahri 18,3 % ni, Yangiyer shahri esa 15,7 % ni tashkil etdi.





o'sish sur'ati
mlrd. so'm

365,1 mlrd. so'm
2021- yil yanvar-mart

414,9 mlrd. so'm
2022- yil yanvar-mart




528,5 mlrd. so'm
2023- yil yanvar-mart



Sirdaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahriga to'g'ri kelib, 52,9 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 16,2 % ni, Guliston shahri esa 6,7 % ni va Boyovut tumani 5,5 % ni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyati



 FHI, % da
 mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahri (105237 ming so'm), Sirdaryo tumani (4618,2 ming so'm) hamda Mirzaobod tumani (1580,0 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4272,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sirdaryo viloyati

2021- yil

2694,4 ming so'm

2022- yil

3197,9 ming so'm

2023- yil

4272,6 ming so'm



01

2021- yil

108,7 %

02

2022- yil

111,3 %

03

2023- yil


102,1 %

o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1202,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,3 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 828,9 ming so'm bo'lgani holda, Yangiyer shahrida– 2056,6 ming so'mni, Guliston shahrida– 1593,5 ming so'mni va Sirdaryo tumanida– 1173,7 ming so'mni tashkil etdi.


Sirdaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 1652 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 370 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 22,4 %) Guliston shahriga, 221 tasi (13,4 %) Sirdaryo tumaniga, 162 tasi (9,8 %) Mirzaobod tumaniga, 154 tasi (9,3 %) Boyovut tumaniga va 138 tasi (8,4 %) Sayxunobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 43 ta loyiha bo'yicha 262,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 7,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023- yilning yanvar-mart oylarida 408 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 29,4 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.